

BOLANING JISMONIY RIVOJLANISHIDA ROLLI O`YINLARNING MAZMUNI

СОДЕРЖАНИЕ ИГРЫ РОЛЕВЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕБЕНКА

CONTENTS OF ROLE PLAYING IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF A CHILD

**Мактабгача таълимкафедраси
ўқитувчиси Норқўзиева М.А**

1-курс талабаси Xayrullayeva Go'zal Zafar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farzandlarimizni intelektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish, rolli o`yinlar hamda maxsus ijtimoiy treninglar yordamida shaklantiradigan ma’naviy sifatlar va ijtimoiy tasavvurlarning o`ziga xosligi to’g’risidagi ma’lumotlar yoritilgan

Аннотация: В статье представлена информация о духовных качествах и уникальности социальных представлений, которые формируют условия для интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития наших детей посредством ролевых игр и специальных социальных тренингов.

Resume: The article provides information on the spiritual qualities and uniqueness of social ideas that form the conditions for the intellectual, moral, aesthetic and physical development of our children through role-playing games and special social trainings.

Калит сўзлар: Farzand,intelektual ,axloqiy ,estetik ,jismoniy rivojlantirish, rolli o`yinlar, ijtimoiy psixologik omillar, o`yin, mehnat, tarbiyachi,aqliy,ma’naviy sifatlar

Ключевые слова: ребенок, интеллектуальное, нравственное, эстетическое, физическое развитие, ролевые игры, социально-психологические факторы, игра, труд, воспитатель, умственные, духовные качества.

Key words: child, intellectual, moral, aesthetic, physical development, role-playing games, socio-psychological factors, play, work, educator, mental, spiritual qualities.

Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish maqsad qilgan ekanmiz. Birinchi navbatda yoshlarimizning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Yoshlar jismonan sog‘lom bo‘lsa, ularning bilim olishlari va kelgusida yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun imkoniyatlari kengroq bo‘ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishiga aylandi. Buning uchun bolalarning ilk yoshlarida har tomonlama to‘g‘ri shakllanishini ta’minlovchi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan tortib, ularning nafaqat jismoniy, balki tomondan aqliy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etuvchi umumta’lim muassasalari va kadrlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutuvchi oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv dasturlarining izchilligiga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Mutaxassislarning fikricha inson butun umri davomida olinadigan barcha ma’lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo’lgan muddatda qabul qiladi. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti sh.M.Mirziyoevning 2016 – yil 29 – dekabrdagi “2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida” qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi”.¹

Farzandlarimizni intelektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muxim hisoblanadi. Tarixiy- ijtimoiy taraqqiyot tajribasi shu narsani isbotlaydiki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qurilma o`zgarganda bu o`zgarishlar eng avvalo ta’lim –tarbiya tizimini isloh qilishni, uning mohiyati va mazmunini o`zgartirishni talab qiladi. Bola shaxsi taraqqiyotida eng ma’sulyatli va muhim hisoblangan maktabgacha yosh davri ma’naviy tasavvurlarning shakllanishi va shunga aloqador ustanovkalarning barqarorlashuvi,jamiyatning axloq normalarini o`zlashtirish uchun qulay bo`lishini nazarda tutganda ,bu yoshdagi bolalarni maxsus dasturlar vositasida ijtimoiy hayotga tayyorlash davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Maxsus rolli o`yinlar ana shu maqsadga xizmat qiluvchi psixologik

¹


2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshtaustivoryo’nalishiboyicha Harakatlar strategiyasini “Xalqbilanmuloqotvainsonmanfaatlariyili” da amalgaoshirishgaoiDavlatdasturlarinio’rganishbo’yicha” ilmiyuslubiyirisola. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil. 193-bet

vosita bo`lib, uni har bir yosh davriga mos tarzda qo`llashga tarbiyachilarni o`rgatish zarur. Rolli o`yinlar hamda maxsus ijtimoiy treninglar yordamida shaklantiradigan ma`naviy sifatlar va ijtimoiy tasavvurlarning o`ziga xosligi, ya`ni o`g'il va qiz bolalardagi xususiyatlarni maxsus o`rganish ham amaliy ahamiyat kasb etadi va bu jarayonlarda indivudial va jinsiy xususiyatlari nuqtai nazardan yondashuvni taqazo etadi. Jamiyatdagi islohotlarning tezlashuvi yuksak axloqli ,ma`naviyatli, mahoratli yoshlarni tarbiyalashda ana shu kabi ijtimoiy psixologik omillar majmuasini bilish va ulardan psixologik ta'sir vositasida foydalanish ijtimoiy psixologiyaning istiqbolli yo`nalishlaridan.

O`yin maktabgacha yoshdagagi bolalrning asosiy faolyati bo`lib ,u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.O`yin bolaning kelajakdagi o`quv- mehnat faolyati,kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.O`yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o`ziga tortib kelgan. O`yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo`lib jamiyat mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o`z o`yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirgan. Masalan ,o`sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayonlari o`yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Ba`zi hollarda esa o`yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Masalan, ovchi tyulenni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o`xshab sudralib, sirpanib boradi. Ayrim hollarda esa o`z o`yinida bola oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi. Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi, o`yin yosh avlodni menatga tayyolaydi. Bolalar o`yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushenskiy tomonidan tariflab berilgan edi.U o`z asarlarida bolalar o`yinining mazmuni ularning hayotda olgan ta'ssurotlari bilan belgilab, ular shaxsini shakllantirishiga ta'sir etadi deb yozadi.Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o`z o`yinlarida tevarak atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi.Bunday faolyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Tarbiyachilar bolalar o`yinlariga rahbarlik qilishda quyidagilarga etibor berishlari lozim :



Xulosa qilib aytganda, shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Bolaning o`yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o`yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o`yinlarini rivojlantirish uchun esa o`z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo`ladi. O`yin bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash tizimida ,maktabgacha ta`lim tashkilotining ta`lim tarbiya ishida, axloqiy mehnat va estetik tomonda tarbiyalashga katta o`rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o`rganish bo`yicha” ilmiy uslubiy risola. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil. 193-bet
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O`zbekiston”, 2017.
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o`quv qo’llanma). Tulenova X., P.Xo’jayev, M.Xujayeva va X.Meliyev. 1-qism (514170-Maktabgacha ta’lim va sporti ta’lim yo`nalishi talabalari uchun). Tosh. “Iqtisod-moliya” 2012 y.-270 b.
- 4.Kamolidinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari savollar, javoblar. T.: “Talqin” 2010y
- 5.L.Mirjalolovavaboshq. “Mashg`ulotlarnio’tkazishtexnologiyalari” moduli bo`yichao’quv –uslubiymajmua. T.: 2018 y. 257 bet.

- 6.GulnoraKushakova, XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA OILA MASALALARINING TALQIN ETILISHI, Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
- 7.GulnoraKushakova, ABU NASR FAROBIY IJODIDA OILADA FARZANDLARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI HAQIDA, Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
- 8.Usmonova Maxfuz.(2021). OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARINING O’ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI. *Мактабгачатаълимжурнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3063>
- 9.Usmonova Maxfuz.(2021). OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO’G’RI TASHKIL QILISH. *Мактабгачатаълимжурнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>
- 10.SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILAVIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHGA OID QARASHLARI
М Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021
- 11.БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ДЕФОРМАЦИЯЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ
МА Норқўзиева - Academic research in educational sciences, 2021
- 12.БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ
М.А Норкузиева - Academic research in educational sciences, 2021
- 13.THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN SHAPING THE PROFESSIONAL STABILITY OF STUDENTS.
М Norquzieva - Theoretical & Applied Science, 2020
- 14..Buronova, S. (2021). МАҲАЛЛА, ОИЛА ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ. Мактабгача таълим журнали.

15.Buranova, SH. (2020). ЕДИНСТВО В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И СЕМЬЕ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

16 Xamidova, G. (2020). Bolani maktabga tayyorlashda oila va maktabgacha ta'lim muassasasining hamkorligi. Архив Научных Публикаций JSPI.

17. Theoretical bases of upbringing of preschool children in the national spirit in the organizations of preschool education

S. J. Sodirovich - 2021

18. www.Ziyonet.uz